

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Iqtisodiyot fakulteti "Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrası katta o'qituvchisi Zulayxo Kazakova tomonidan "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" fanining "Tashqi savdoni tartibga solishning tarif metodlari" mavzusi bo'yicha tayyorlagan ochiq ma'ruza darsi ishlanmasiga

TAQRIZ

O'zbekiston Respublikasining xalqaro savdo siyosati mamlakat iqtisodiy siyosatining asosiy va ajralmas qismini tashkil etadi. Boshqa har qanday davlat singari, O'zbekiston Respublikasi ham mamlakat tovarlari va xizmatlarini import qiluvchilar va eksport qiluvchilarni, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarni qo'llab quvvatlash, shuningdek ularning faoliyati kafolatini Respublikaning eng muhim maqsadlaridan biri deb biladi.

Ochiq ma'ruza darsining mavzusi "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" fanining fan dasturi va ishchi o'quv dasturi (sillabusi)ga to'liq mos keladi, ma'ruza dars ishlanmasi yangi interfaol pedagogik texnologiyalar bo'yicha taqdimot qilingan holda uslubiy tomondan to'g'ri tanlangan. Ishlanmada ochiq ma'ruza darsining rejasi, maqsad va vazifalari, o'qitish pedagogik texnologiyalari, taqdimotlar berilgan bo'lib, unda pedagogik faoliyat va o'quv faoliyat natijalari to'liq ochib berilgan. "Tashqi savdoni tartibga solishning tarif metodlari" ma'ruza mavzusi boyicha ta'lim texnologiyasi, matnida tashqi savdoni tartibga solish zarurati va tashqi savdo siyosati, tashqi savdo siyosatining turlari, tashqi savdo siyosati dastaklarining guruhlanishi, bojxona tarifining turlari va hisoblash usullari, bojxona tariflarini qo'llashning jahon tajribasi, tarifning milliy iqtisodiyotga ta'siri, tarifli boshqaruvning afzalligi va kamchiliklari, tashqi savdo siyosatida eksport va import imkoniyatlari, sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar tomonidan qo'llaniladigan tarif eskalatsiyasi reja-savollariga ma'ruza matni hamda tayanch iboralar, foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati, nazorat uchun og'zaki va test savollari berilgan.

Umuman olganda, Z.Kazakova tomonidan tayyorlangan "Tashqi savdoni tartibga solishning tarif metodlari" mavzusidagi ma'ruza ishlanmasi "Ochiq ma'ruzalarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom" talablariga mos keladi va uni o'quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti "Iqtisodiyot va biznes" kafedrası mudiri, Z. Kazakova (PhD).



Babaxolov Sh.B.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Iqtisodiyot fakulteti "Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrasida katta o'qituvchisi Zulayxo Kazakova tomonidan "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" fanining "Tashqi savdoni tartibga solishning tarif metodlari" mavzusi bo'yicha tayyorlagan ochiq ma'ruza darsi ishlanmasiga

T A Q R I Z

Dunyo xo'jaligining XX asr oxirlari faoliyatidagi o'ziga xos xususiyatlaridan biri - davlatlar o'rtasidagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yanada rivojlanishi va takomillashuvidir. Har bir davlat bu sharoitda o'z tashqi iqtisodiy faoliyatini, o'z iqtisodiyotini har tomonlama rivojlantirish, dunyo xo'jaligiga integratsiyalashuv jarayonlarini, har tomonlama o'ylangan holda, tashkil etishga qaratgan bo'ladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishning asosiy shakllaridan bo'lmish - tashqi savdoni (eksport va import jarayonlarini) amalga oshirishda davlatning roli asosan savdo siyosatini amalga oshirish va tashqi savdoni tartibga solish choratadbirlarini ishlab chiqishga, qo'llashga qaratilgan bo'ladi. Har bir mamlakatning savdo siyosatida iqtisodiy, siyosiy, ma'muriy, tashkiliy huquqiy va boshqa masalalar uzviy bog'liq. Savdo siyosatining tub mohiyatidan kelib chiqilsa, iqtisodiy masalalar asosiysi hisoblanadi. Mamlakatlar o'z ichki bozorlarini himoya qilish, chet el bozorlariga ko'proq tovarlar chiqarish maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatini savdo siyosatining mavjud vositalari yordamida tartibga soladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish davlat vositalari xarakteriga ko'ra, boj tarifni qo'llashga asoslangan tarif va boshqa barcha vositalarga asoslangan notarif vositalarga bo'linadi.

Kazakova Z. tomonidan ochiq ma'ruza darsi uchun tanlangan "Tashqi savdoni tartibga solishning tarif metodlari" mavzusi "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" fanining fan dasturi va ishchi o'quv dasturi (sillabusi)ga to'liq mos keladi.

Umuman olganda, ochiq ma'ruza dars ishlanmasi yangi interfaol pedagogik texnologiyalar bo'yicha taqdimotlar, ma'ruza matni, test savollari qilingan holda pedagogik faoliyat va o'quv faoliyat natijalari bir-biriga bog'langan holda to'liq ko'rsatilgan hamda o'quv-uslubiy jihatdan to'g'ri ishlab chiqilganligini hisobga olib, talabalarga dars o'tish jarayonida foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

"Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi"
kafedrasida dotsenti, i.f.n.



I. Salamov
I.Salamov